

O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

2025- yil yanvar–sentabr


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yilning yanvar–sentabr oylaridagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, (norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **722 166,1** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda **14,0** %ga oshdi.

Ma'lumot uchun: 2024- yilning yanvar–sentabr oylarida xizmatlar hajmi **580 459,1** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda **12,8** %ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (yanvar-sentabr, mlrd so'm) ¹



II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o'zgarishi

2025- yilning yanvar–sentabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **38,1** %, ya'ni **275 415,3** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda ushbu hududda o'sish **16,1** %ga o'sdi. Toshkent shahridan tashqari, viloyatlar kesimida eng yuqori ulush Samarqand (**7,4** %), Toshkent (**6,8** %) va Farg'ona (**6,8** %) viloyatlarida kuzatildi. Sirdaryo viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 920,6** mlrd so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,4** %ini tashkil etdi.

¹ 2023-2025- yillarning yanvar-sentabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar–sentabr

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi ²	722 166,1	100,0	114,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	23 627,1	3,3	111,3
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	37 032,5	5,1	115,4
Buxoro	29 510,4	4,1	113,1
Jizzax	16 913,0	2,3	114,5
Qashqadaryo	36 694,4	5,1	112,8
Navoiy	17 788,7	2,5	113,6
Namangan	36 979,1	5,1	112,4
Samarqand	53 131,8	7,4	114,1
Surxondaryo	24 192,1	3,3	113,8
Sirdaryo	9 920,6	1,4	113,7
Toshkent	48 839,8	6,8	114,8
Farg'ona	48 766,9	6,8	113,3
Xorazm	24 948,2	3,5	113,5
Toshkent shahri	275 415,3	38,1	116,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi

2025- yilning yanvar–sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahridan tashqari respublikaning boshqa hududlarida, xususan, Andijon (**115,4 %**), Toshkent (**114,8 %**), Jizzax (**114,5 %**), Samarqand viloyatlarida (**114,1 %**) kuzatildi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Qoraqalpog'iston Respublikasida (**111,3 %**), shuningdek, Namangan (**112,4 %**) va Qashqadaryo viloyatlarida (**112,8 %**) qayd etildi.

2025- yilning yanvar–sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **19 101,8** ming so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davridagi ko'rsatkich (**15 655,3** ming so'm)ga nisbatan **3 446,5** ming so'mga, ya'ni **11,8 %**ga o'sish qayd etildi.

Hududlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahriga to'g'ri kelib, **87 756,6** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **16 902,4** ming so'mga (**13,5 %**ga) oshdi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Surxondaryo viloyatida (**8 146,0** ming so'm) qayd etildi.

² Hududular bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.

**Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar–sentabr)**

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	19 101,8	111,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11 591,6	109,9
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	10 629,0	113,3
Buxoro	14 133,3	111,3
Jizzax	10 920,7	112,3
Qashqadaryo	10 002,6	110,4
Navoiy	16 146,6	111,6
Namangan	11 723,0	110,2
Samarqand	12 274,0	111,8
Surxondaryo	8 146,0	111,2
Sirdaryo	10 591,0	111,7
Toshkent	15 611,2	112,8
Farg'ona	11 682,1	111,1
Xorazm	12 195,5	111,5
Toshkent shahri	87 756,6	113,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **397 493,0** mlrd so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **55,0** %ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **12,3** %ga o'sish kuzatildi.

Hududlar kesimida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2024- yilning yanvar–sentabr oylariga nisbatan **20 762,5** mlrd so'mga (**13,1** %ga) oshib, **109 644,9** mlrd so'mga yetdi. Mazkur hududda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **39,8** %ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, Farg'ona (**36 243,1** mlrd so'm), Toshkent (**35 162,5** mlrd so'm) va Samarqand (**33 902,4** mlrd so'm) viloyatlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 477,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Navoiy (**9 901,8** mlrd so'm) va Jizzax (**12 043,2** mlrd so'm) viloyatlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi nisbatan past bo'lgan.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar–sentabr

	Hajmi, mlrd so'm	Jami hajmdagi ulushi, %	O'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	397 493,0	55,0	112,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	17 147,3	72,6	113,1
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	26 568,8	71,7	111,0
Buxoro	20 314,5	68,8	115,1
Jizzax	12 043,2	71,2	112,1
Qashqadaryo	26 946,2	73,4	111,2
Navoiy	9 901,8	55,7	111,6
Namangan	27 418,9	74,1	111,3
Samarqand	33 902,4	63,8	111,1
Surxondaryo	17 781,8	73,5	112,0
Sirdaryo	6 477,9	65,3	112,2
Toshkent	35 162,5	72,0	112,3
Farg'ona	36 243,1	74,3	112,6
Xorazm	17 939,7	71,9	113,8
Toshkent shahri	109 644,9	39,8	113,1

III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yilning 27- fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida xizmatlar sohasini rivojlantirish va uning monitoringini amalga oshirish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga moliyaviy xizmatlar (**24,5** %ga; umumiy o'sishga **4,1** foiz band hissa qo'shdi), transport xizmatlari (**12,1** %ga; **2,3** f.b.), savdo xizmatlari (**12,9** %ga; **2,3** f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**8,7** %ga; **1,8** f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**20,4** %ga; **1,4** f.b.), boshqa xizmatlar (**11,9** %ga; **0,6** f.b.), shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**13,6** %ga; **0,3** f.b.) va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**11,3** %ga; **0,3** f.b.) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Ijara xizmatlari (**19,6** %ga), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**15,3** %ga), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (**12,1** %ga), shaxsiy xizmatlar (**11,6** %ga) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (**4,2** %ga) o'sib, umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining **0,9** foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2025- yilning yanvar–sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **20,1** %, transport xizmatlari **18,5** %, savdo xizmatlari **17,2** %, moliyaviy xizmatlar **17,1** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **7,6** %, ta'lim sohasidagi xizmatlar esa **3,7** % ulushni egalladi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar–sentabr)

	Hajmi, mlrd so'mda		O'sish sur'ati, %da
	2024- y.	2025- y.	
Xizmatlar – jami	580 459,1	722 166,1	114,0
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	39 645,6	54 796,9	120,4
moliyaviy xizmatlar	97 462,2	123 523,1	124,5
transport xizmatlari	108 291,3	133 590,7	112,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>53 098,6</i>	<i>67 167,9</i>	<i>111,1</i>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	118 870,6	145 307,7	108,7
savdo xizmatlari	104 143,1	124 528,5	112,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	15 081,4	18 814,3	111,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	22 123,8	26 322,4	104,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	11 663,7	14 567,7	113,6
ijara xizmatlari	7 137,0	9 343,7	119,6
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	8 514,0	10 516,2	112,1
shaxsiy xizmatlar	11 262,0	14 518,3	111,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	7 301,8	9 233,2	115,3
boshqa xizmatlar	28 962,6	37 103,4	111,9


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2024- yilning yanvar–sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **26 437,1** mlrd so'mga oshib, **145 307,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Uning o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, mazkur xizmatlar ulushi **95,6 %** darajasida qayd etildi.


Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi tarkibi (2025 yil yanvar–sentyabr)

- Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari
- Yashash xizmatlari



2025- yilning yanvar–sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi **133 590,7** mlrd so'mga yetdi. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **50,3** %.

Transport xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi (2025 yil yanvar–sentyabr)




2024- yilning yanvar–sentabr oylariga nisbatan tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **20 385,4** mlrd so'mga oshib, **124 528,5** mlrd so'mni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **52,9** %ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **31,3** %ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **15,8** %ni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan 2025- yilning yanvar–sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **26 060,9** mlrd so'mga oshib, **123 523,1** mlrd so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davri bilan solishtirganda **19,0** %ga o'sdi.

2025- yilning yanvar–sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari, moliyaviy xizmatlar ulushi **88,0** %ni tashkil etdi. Sug'urtalash bo'yicha xizmatlarning ulushi **7,1** % darajasida qayd etildi. Yordamchi moliyaviy xizmatlar esa **4,9** %ini tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo'yicha hajmi
(2025 yil yanvar–sentyabr, mlrd so'm)



2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **54 796,9** mlrd so'mni tashkil etdi. Bu tarmoqdagi eng katta ulushni kompyuter dasturlashtirish xizmatlari egallab, **40,4** %ni, o'sish sur'ati esa **24,1** %ga o'sdi. 2025- yilning yanvar–sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **26 322,4** mlrd so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustunlik qilib, **45,8** %ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**18 814,3** mlrd so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **95,9** % darajasida qayd etildi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **14 567,7** mlrd so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **53,2** %ini sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar tashkil etdi. Shifoxona muassasalari xizmatlari **30,8** %, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar esa – **16,0** %.

Ijara xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlariga to'g'ri kelib, **49,3** %ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi, real oldi-sotdi obyekti bo'lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), shartnoma narxlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov kunida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST (Milliy statistik tasniflagich) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Tayyorlash uchun mas'ul:
Xizmatlar sohasi statistikasi
boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1283)

